



BIRLAMCHI TIBBIY SANITARIYA YORDAMI MUASSASALARIDA BEMORLARNI “GIPERTONIKLAR MAKTABI” DA UZLUKSIZ O‘QITISHNING SAMARADORLIGI

Xodjanova T.R.

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Urganch, O‘zbekiston

Kirish. Yurak- tomir tizimi va boshqa yuqumsiz kasalliklar butun dunyo bo‘yicha kasallanish va o‘lim holatlarining asosiy sababchisi xisoblanadi. Surunkali kasalliklar rivojlanishi holatlarining 60 % turmush tarzini noto‘g‘ri olib borilishi ya‘ni tamaki chekish, alkololni suiiste‘mol qilish, meva va sabzavotlarni yetarlicha iste‘mol qilmaslik, osh tuzini me‘yoridan ortiq iste‘mol qilish va kam harakatlanish kabi yetakchi xavfli omillar bilan bog‘liq. Ushbu xavfli omillar qon bosimining ko‘tarilishiga olib keladi, shu bilan birga bemorlar qon bosimlarini o‘lchab nazorat qilmaydilar. Gipertoniklarning qon bosimini me‘yoriy ko‘rsatkichlarga tushirish uchun, albatta ularni “Gipertoniklar maktabi” da uzluksiz o‘qitish kerak.

Tadqiqotning maqsadi Oilaviy poliklinikalarda arterial gipertenziya bilan hastalangan bemorlarni “Gipertoniklar maktabi” da uzluksiz o‘qitishning samaradorligini o‘rganish.

Tadqiqod materiallari va usullari. “Gipertoniklar maktabi” da 72 nafar bemor o‘qitildi. Ulardan 32 nafari erkaklar 40 nafari ayollar. Bemorlarning o‘rtacha yoshi 47 yilni tashkil etadi. Bemorlar tekshiruvdan o‘tkazilganda anamnez ma‘lumotlari va ambulator kartalar tahlilidan foydalanildi. Kasallik xavf omillari va asoratlarini o‘rganish maqsadida anketa so‘rovnoma tuzildi. Rejalashtirilgan o‘quv dasturi asosida ma‘ruza, suhbatlar asosan sog‘lom turmush tarziga asoslangan va qon bosimini o‘lchash bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazildi. Bemorlar har safar qayta ko‘rikga kelishganida, yana o‘qitildi va suhbatlar o‘tkazildi.

Tadqiqod natijalari. Bemorlarni “Gipertoniklar maktabi” da o‘qitishdan oldin o‘tkazilgan so‘rovnoma bo‘yicha arterial gipertoniya xavf omillarini 65 % bemor, kasallik asratlarini 73 % bemor bilmasligi va faqat 10 % bemor qon bosimini o‘lchab nazorat qilishi aniqlandi. O‘qitilgandan keyin bu ko‘rsatkichlar 23% va 28 % ga pasaydi, 1 yildan keyin esa bu ko‘rsatkichlar 5 % va 7 % ga teng bo‘ldi. Qon bosimini o‘lchash bo‘yicha o‘tkazilgan amaliy mashg‘ulotlar natijasida birinchi o‘qishdan keyin 84 %, uchinchi va to‘rtinchi o‘qishdan keyin 92 % bemor tonometrdan to‘ri foydalanishni o‘rgandi. Bemorning har tashrifida qayta – qayta o‘qitish qon bosimini me‘yoriy ko‘rsatkichlarga tushirishga 79 % bemorda erishildi. Uzluksiz o‘qitish natijasida 90 % bemorlar dorilarni o‘z vaqtida ichadigan bo‘ldi, 47 % bemor har kuni uch kilometr masofaga yurishni odat qildi va 38 % to‘g‘ri ovqatlanish tamoyillariga rioya qila boshladi.

Xulosa. Shunday qilib, oilaviy poliklinikada arterial gipertenziya bilan xastalangan bemorlarni “Gipertoniklar maktabi” da uzluksiz o‘qitish, bemorlarni o‘z kasalligi haqida ko‘proq bilim olishiga, hayot sifatini yaxshilashga, qon bosimini me‘yoriy ko‘rsatkichlargacha pasaytirishda dorilarni o‘z vaqtida ichishga, kasallik asoratlarini kamaytirishda muxim ahamiyat kasb etadi. Oliaviy poliklinikalarda “Gipertoniklar maktabi” ni tashkillarshtirish va unda bemorlarni bir marta emas, balki uzluksiz o‘qitib borish kerak.